

BALOG'AT ILMIDA "ILTIFOT" JANRINING XUSUSIYATLARI

ASKAROV Abdurashid Murodjonovich

*O'zbekiston xalqoro islom akademiyasi Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrasini
o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Ushbu maqolada arab tilining balog'at fani, uning tarkibidagi ilmu-l-bayon, ilmu-l-ma'oniy va ilmu-l-badi' haqida, ushbu san'atlarning yuzaga kelish tarixi, hamda, ushbu ilmlarni ajdodlardan qolgan og'zaki va yozma ma'naviy merosni o'rganishdagi ahamiyati, iltifot janri haqida bayon qilindi.

Eta statya issleduet "ilm al-balyaga" i yego soderjaniya: ilm al-bayan, ilm almaaniy i ilm al-badi', istoriyu vozniknoveniya etix nauk, a takje ix rol v izuchenie ustnogo i pismennogo naslediya predkov i uchenykh, takje opisan janr Iltifat.

This article explores the science of balaghah, comprehension of its contents: ilm al-maani, ilm al-bayan, ilm al-badi, the history of the occurrence of these sciences, and its role on studying the oral and written heritage of ancestors, scholars and the genre of Iltifat is also described.

Tayanch so'zlar: arab tili balog'at fani, balog'at faniga oid asarlar, ilmul ma'oniy, ilmul bayon, ilmul badi', iltifot janri.

Klyuchevye slova: ilm al-balyaga, ilm al-maani, ilm al-bayan, ilm al-badi, iltifot.

Key words: science of balaghah, books, comprehension of its contents: ilm al-maani, ilm al-bayan, ilm al-badi, genre Iltifat.

Arab tili dunyo tillari ichida eng ko'p o'rganilgan va hanuz o'rganilayotgan til bo'lib, u lug'at boyligi, qoidalarining xilma-xilligi, bir kalimani bir necha uslubda ishlatish imkoniyatlarining ko'pligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, arab tili shevalari turiga ko'ra dunyoda yuqori o'rinni egallaydi. Arab tili Qur'oni karim tili, Payg'ambarimiz (s.a.v.) tillari bo'lgani uchun ham uni o'rganish yo'llari sahobai kiromlar davridayoq ishlab chiqilgan. Arab tilini o'rganish uchun boshqa tillardagi kabi leksika, morfologiya, sintaksis, grammatika, ya'ni sarf va nahv ilmlari atroflicha o'rganiladi. Shu

bilan birga arab tilida mukammal gaplashish va tushunish uchun balog‘at fani, uning tarkibidagi ma’oniy, bayon, badi’ kabi ilmlarni chuqur va batafsil o‘rganish, uning qonun-qoidalalarini yaxshi bilish talab etiladi.

Balog‘at ilmini tahsil qilish orqali Qur’oni karim va hadisi shariflar ma’nolarini to‘g‘ri tushunish va nozikliklarini teran anglash oson kechadi hamda Qur’oni karimning fasohat va balog‘at e’tiboridan i’jozi mislsiz ekani namoyon bo‘ladi . Shu bois, olimlar Qur’oni karim tafsiri, hadisi shariflar sharhi va shariat kitoblarini o‘rganmoqchi bo‘lgan kishiga lug‘at, sarf, nahv, usulu-l-fiqh, usulu-d-din, qiroat ilmi, nosix va mansux ilmlar bilan bir qatorda ma’oniy, bayon, badi’ kabi ilmlarni ham puxta o‘rganishlari lozimligini ta’kidlaydilar. Shuningdek, mumtoz adabiyotimiz durdonalari hisoblangan she’r va g‘azallarda ham majoz, tashbeh, istiora, kinoya kabi balog‘at vositalaridan keng foydalanilgan. Demak, buyuk ajdodlarimizdan qolgan boy adabiy merosini to‘g‘ri va chuqur o‘rganib, boshqalarga ham yetkazishimizda balog‘at ilmi katta ahamiyat kasb etadi.

Bu ilm boshqa fanlardan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Zero, uning lug‘at sir-asrorlarini ochishda va xazinalarini namoyon etishda betakror o‘rni va uslublari bor. Shuning uchun ham u tilning nozik jihatlarini o‘rganishda bebahvo va beqiyosdir.

Shu bilan birga, bu ilm til musobaqlari va suhandonlik bellashuvlarida oliy mukofotni qo‘lga kiritish usullarini chuqur o‘rgatadi. Bu ilm orqali aqllarni lol qoldiruvchi jumlalar tuzish, holat taqozosiga muvofiq tarzda so‘zlash, bir so‘zni turli ma’nolarda nuqsonsiz ishlatish malakalari rivojlantiriladi. Ko‘ngildagi maqsadni chuqurroq, kengroq va tushunarli holatda bayon qilish tajribasi ortadi. Bu esa balog‘at ilmiga ehtiyoj naqadar kuchli ekanini bildiradi.

Ta’kidlanganidek, balog‘at ilmi bir-birini to‘ldiruvchi uchta ilm: ilmi ma’oniy, ilmi bayon va ilmi badi’dan tarkib topgan. Ilmi ma’oniyda arabiylafzlarning ishlatilish usullari va ba’zi so‘zlarning ahamiyati haqida bahs yuritiladi. Ilmi bayon, kerakli maqsadni ifodalash va yetkazishda, uning ta’sirini oshirishda so‘zlarning haqiqiy va ko‘chma ma’nolaridan foydalanish usullarini o‘rgatadi. Ilmi badi’ maqsadni nutq orqali ifodalashda so‘zлarni ilmi ma’oniy va bayondan foydalangan holda badiiy vositalar orqali bir-biriga uyg‘un qilib keltirish usullari haqida bahs qiladi.

Balog‘at fani bo‘yicha hijriy II asrdan boshlab kitoblar bitila boshlangani ma’lum. Ilmi bayon haqida yozilgan dastlabki asar Abu Ubayda Ma’mar ibn al-Musanniy al-Basriyning "Majozul-Qur’on" kitobi bo‘lib, u ilmi bayonning ilm sifatida shakllanishiga asos bo‘ldi. Abu Ubayda alloma Xalil ibn Ahmadning shogirdi bo‘lib, 206 hijriy sanada vafot etgan. U Sibavayhning ustozidir¹.

Ilmi ma’oniy haqida birinchi bo‘lib qalam tebratgan olim kim ekanligi ma’lum emas. Bu borada ko‘plab mualliflarning asarlari mavjud. Lekin uslubida yagona bo‘lgan, adiblar sardori deya tanilgan Abu Usmon Amr ibn Bahr al-Johizning (vafoti 255 hijriyda) "al-Bayon va-t-tabyin" hamda "I’juzu-l-Qur’on" nomli kitoblari ular orasida alohida ajralib turadi. U kishidan keyin Abu Abbos al-Mubarrad "al-Komil" asari bilan, ibn Qutayba "ash-She’r va-sh-shuaro" kitobi bilan bu fanga o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Balog‘atning badi’ ilmi bo‘yicha birinchi bo‘lib asar yozgan olim xalifa Abdulloh ibn al-Mu’tazz ibn al-Mutavakkil al-Abbosiydir (v. 296 h.). U gap bezagi, ya’ni badiiy tasvir vositalarini chuqur o‘rganib, ulardan o‘n yettitasini o‘zining "al-Badi'" asarida keltirib o‘tadi. Keyingi asrlarda bu ilm rivojlantirildi. "As-Sano’atayn" asari sohibi Abu Hilol al-Askariy, "al-Umda" sohibi ibn Rashiq, mufassirlar ustozи "al-Kashshof" asari sohibi Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy va boshqalar shu yo‘lda xizmat qildilar. Balog‘at ilmi rivojiga Abdulqohir ibn Abdurrahmon al-Jurjoniy (v.471 h.) o‘zining "Daloilul-i’joz" va "Asrorul-balogs‘a", u kishidan keyin Abu Ya’qub Yusuf as-Sakkokiy (v. 626 h.). "Miftohul-ulum", Qazviniy "At-talxis" asarlari bilan katta hissa qo‘shdilar. Hijriy VIII asrga kelib ulug‘ alloma, arab tili, ma’oniy, bayon, badi’, kalom, usul va mantiq ilmlari peshvosi Sa’duddin Taftazoniy balog‘at ilmiga oid asarlar yaratdi.

Sa’duddin Taftazoniyning to‘liq ismi Mas’ud ibn Umar ibn Abdulloh Sa’duddin at-Taftazoniy bo‘lib, juda ko‘p ilmlarda peshvo olim bo‘lgan va turli sohalarda asarlar ta’lif etgan.

Taftazoniy balog‘atning ayrim istilohlari ta’rifiga o‘z munosabatini bildirgan.

1) Taftazoniy iltifot (التفات) ning ta’rifida shunday degan:

¹ Тариху улуми-л-балаға ва-т-таъриф би-рижалиха. Аҳмад Мустафо ал-Марғий. Миср. 1950. 24 С.

هو انتقال الكلام من أسلوب من التكلم والخطاب والغيبة إلى أسلوب آخر غير ما يتوقعه المخاطب ليفيد تطبيق
لنشاطه وإيقاظه في إصغائه².

Iltifot(gapning bir (birinchi, ikkichiva uchinchi shaxslardagi) uslubdan boshqa, tinglovchi kutmagan uslubga o'tishidir. Bu so'zlovchining nozik ta'bligini ifoda qilish va tinglovchining diqqatini uyg'otish uchun xizmat qiladi.

Zamaxshariy esa iltifotning ta'rifida shunday degan:

أن الكلام إذا نقل من أسلوب إلى أسلوب كان ذلك أحسن تطبيقاً لنشاط السامع وإيقاظه للإصغاء إليه من إجزائه على أسلوب واحد³.

Gapni bir uslubdan boshqa uslubga o'tkazish - tinglovchini faollashtirish hamda uning e'tiborini tortish uchun eng yaxshi yo'llardan biridir.

Taftazoniyning iltifotga bergen ta'rifi bilan Zamaxshariyning ta'rifi taqqoslansa, Taftazoniyning Zamaxshariydan ta'sirlangani ma'lum bo'ladi. Lekin Zamaxshariy aytgan so'z ta'rif ko'rinishiga kelmagan.

Taftazoniy iltifotning ta'rifini uning xususiyatidan kelib chiqgan holda chegaralaydi. Ya'ni, u “tinglovchi kutganidan boshqa uslubga o'tish” degan shart bilan iltifotning chegarasini aniqlashtirgan.

Bu o'z navbatida iltifotga kiradigan ba'zi narsalarning oldini oladi. Taftazoniy mazkur narsalarni tadqiq etadi hamda ularning iltifot chegarasidan chiqish sababini yoritib beradi.

Taftazoniy iltifotning ta'rifiga (غير ما يتوقعه المخاطب) “tinglovchi kutganidan boshqa uslubga o'tish” deb o'zi kiritgan shatr borasida shunday degan:

فُلُوْ لِمْ يَعْتَبِرُ هَذَا الْقِيدُ لَدُخُلِ فِي هَذَا التَّقْسِيرِ أَشْيَاءٌ لَيْسَتْ مِنَ الْأَلْفَاظِ...

Agar ushbu chegara e'tiborga olinmasa, o'sha sharh ostiga iltifotdan hisoblanmagan narsalar ham kirib ketadi.

Masalan, quyidagi gapda bir shaxsdab bosgqa shaxsga o'tish holati bo'lsa ham, iltifotga misol bo'la olmaydi

– أنا زيد وأنت عمرو – *Men Zayd, sen Amrsan.*

– أنت الذي فعل هذا – *Shunday qilgan sensan.*

²التفزاراني. المطول على التلخيص. – مصر: سنه، 2015. – ص. 131. .

³الكشف. الزمخشري. ج.1.ص.64.

Ayrim hollarda birinchi shaxs va ikkinchi shaxs olmoshi bilan, ba’zan ko’rsatish olmoshi va uchinchi shaxs olmoshi bilan bir ma’no ifodalanadi.

Masalan:

يَا زَيْدُ قَمْ - Xoy Zayd, tur!

يَا رَجُلًا لِهِ بَصَرٌ خَذِيلٌ - Ey ibrat ko ‘zi bor kishi, qo ‘limdan tut.

Iltifot qilinayotgan yo‘lning takrorlanishi ham kuzatiladi.

Masalan: Fotiha surasidagi oyatlarda:

(مَالِكٌ يَوْمَ الدِّينِ إِيَّاكَ نَعْبُدُ وَإِيَّاكَ نَسْتَعِينُ) ﴿١﴾

U jazo-mukofot kunining egasidir. Faqat. Sengagina ibodat qilamiz va faqat sendangina yordam so ‘raymiz.⁴(Fotiha3-4)

Bu yerda iltifotdagi uchinchi shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tish holati “إِيَّاكَ نَعْبُدُ” iborasida ko‘rinadi.

Yana bir misol:

يَا مَنْ هُوَ عَالَمٌ حَقًّا لِي هَذِهِ الْمُسْأَلَةُ فَإِنَّكَ الَّذِي لَا نَظِيرٌ لَهُ فِي هَذَا الْفَنِ

Ey olim kishi, menga ushbu masalani hal qilib ber. Chunki sen ushbu sohada tengi yo ‘q odamsan.

Yuqoridagi misolda uchinchi shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tilgan.

Taftazoniy Mutanabbiyning quyidagi baytini keltiradi va unga munosabat bildiradi:

يَا مَنْ يَعْزِزُ عَلَيْنَا أَنْ نَفَارِقَهُمْ وَجَدَانَا كُلَّ شَيْءٍ بَعْدَكُمْ عَدْمٌ⁵

Ey firoqi bizga og ‘ir keladigan(inson)lar,

Sizlardan keyin biz topgan har bir narsa aslida yo ‘qlikdir.

Taftazoniy fikriga ko‘ra ushbu baytda iltifot mavjud emas. Chunki, mavsulga qaytuvchi olmosh uchinchi shaxsda bo‘ladi, undalma ishtirok etgan gap tugagandan keyin kelgan gap esa ikkinchi shaxs orqali ifodalanadi. Shu sababli, baytdagi “نَفَارِقَهُمْ” so‘zi uchinchi shaxs egalik olmoshi bilan, “بَعْدَكُمْ” so‘zi esa ikkinchi shaxs olmoshi bilan kelgan.

⁴ Шайх Абдулазиз Мансур. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Т.: Тошкент ислом университети, 2012. – Б. 6.

⁵ المتنبي. الديوان. — بيروت. ص. 333

Taftazoniy tomonidan bayon ilmidagi *iltifāt* (التفات) usulining ta’rifiga «tinglovchi kutganidan boshqa uslubga o‘tish orqali» (غير ما يتوقعه المخاطب) degan shartning kiritilishi mazkur usulning ekspressiv vazifasini aniq chegaralashga xizmat qilgani asoslangan.

Taftazoniy Sakkokiyning tashbehning turlari haqidagi qilgan aqliy taqsimotlariga, istidlolni maoniy ilmining bir bo‘lagi deb hisoblashiga hamda balog‘atga oid bo‘limgan ba’zi narsalarni unga qo‘sib yuborganiga e’tibor qaratgan va ularga munosabat bildirgan. Bu o‘z navbatida, Taftazoniy Sakkokiyning balog‘atdagi ilmiy uslubidan ko‘ra Jurjoniyning uslubini afzal ko‘rganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Taftazoniy Qazviniyning balog‘atga oid ba’zi qarashlariga, balog‘at tarkibi borasida u amalga oshirgan ayrim tasniflarga munosabat bildirgan. U Jurjoniyning balog‘atga oid tasniflara qaytish kerakligini ta’kidlagan. Chunki, Jurjoniyning taqsimotlari balog‘atning ilmiy va nazariy muammolarini ko‘proq qamrab olgani hamda babs va tortishuvlarga sabab bo‘lmasligini ta’kidlagan. Taftazoniy Sakkokiy va Qazviniydan boshqa balog‘at bilan shug‘ullangan olimlarning qarashlariga ham fikr bildirgan. Taftazoniy bu borada Jurjoniy va Zamaxshariyning yo‘lini tutgani, bundan tashqari, u Ibn Asirning qarashlariga ko‘p murojaat qilganligi ma’lum bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. سعد الدين التفتازاني. الشرح المطول لتلخيص المفتاح. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2013. – 792 ص.
2. سعد الدين التفتازاني. مختصار المعانى شرح كتاب تلخيص المفتاح. – اسطنبول: دار الشفاء، 2017. – 704 ص.
3. سعد الدين التفتازاني. شرح مفتاح العلوم. – دمشق: دار تقوى الشام، 2020. – 793 ص.
1. ابن تغري بردي. المنهل الصافي والمستوفي بعد الوافي. – ج. 11. – القاهرة: دار كتب، 2005. – 356 ص.
2. ابن حجر العسقلاني. إحياء الغمر بأبناء العمر. – ج. 2. – مصر: المجلس الأعلى للشؤون الإسلامية، 1998.
3. ابن حجر. إحياء الغمر بأبناء العمر. – ج. 1. – مصر: المجلس الأعلى للشؤون الإسلامية، 1998. – 502 ص.
4. ابن خلدون. تاريخ ابن خلدون. – لیوان، 2008. – ج. 3. – ص. 1101.
5. ابن عيسى بن عبد الله الرمانى. النكت في إعجاز القرآن. – مصر: دار المعارف، 1976. – 384 ص.

- .6. ابن الحاجب. فوائد مختصر الأصول. – ج. 1. – بيروت، 2015. – 475 ص.
- .7. ابن المثنى البصري. مجاز القرآن । بتحقيق محمد فؤاد سرکین. – القاهرة: الطبيعة، 1381 هـ. الجزء الثاني. – 452 ص.
- .8. ابن بحر الجاحظ. كتاب البيان والتبيين. – مكتبة النور، 2006. – 444 ص.
- .9. ابن رشيق القيرواني. العمدة في صناعة الشعر ونقده وعيوبه. – القاهرة: المكتبة الخانجي، 2000. – 1509 ص.
- .10. ابن حجر العسقلاني. إحياء الغمر بأنباء العمر. – ج. 2. – مصر، 1998. – 377 ص.
- .11. ابن حجر العسقلاني. الدرر الكامنة. – ج. 4. -حیدر آباد: دائرة المعارف العثمانية، 1993. – 505 ص.
- .12. ابن وهب. البرهان في وجوه البيان. – مصر: مكتبة الشباب، 2017. – 419 ص.
- .13. أبو الفلاح. شذرات الذهب في أخبار من ذهب. – ج. 8. – بيروت، 1997. – 655 ص.
- .14. أبو العباس عبد الله ابن المعتز. كتاب البديع । شرحه وحققه عرفان مطرجي. – بيروت: مؤسسة الكتب الثقافية، 2012. – 110 ص.
- .15. أبو نصر الفراهي. كتاب في المنطق. الخطابة । تحقيق وتأليف د. محمد سليم سالم. – مصر: مطبعة دار الكتب، 1976. – 903 ص.
- .16. أبو يعقوب السكاكي. مفتاح العلوم । تحقيق د. عبد الحميد الهنداوي؛ علي جارم و مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيام-المعانى-البديع. – القاهرة، 1999. – 539 ص.
- .17. احسن عباس. تعریح النقد الادیب عند العرب. بیروت: دار العلمیة، 1984. – ص. 28.
- .18. 19. Muqaddima. Ibn Xaldun al-Hadramiy. 3-jild. – Bayrut, 1957.
20. Ad-duraru-l-kamina fi a'yani-l-miati-s-samina. Ahmad ibn Ali ibn Muhammad ibn Hajar al-Asqaloni. 5-jild. – Haydarobod, 1983.
21. Kashfu-z-zunuz an asamili kutub va-l-funun. Mustafo ibn Abdulloh Hoji Xalifa. 1-jild. – Damashq, 1994.
22. Rustamiy S. O'rtalasrlar balog'at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar. – Toshkent, 2019. – 239 b.
23. Mullasadikova N. «Qur'onda ma'oniy ilmining lingvopoetik asoslari». – Toshkent, 2020. – 52 b.